

SHARTNOMA № 168-govuz-2025

Navoiy viloyati

(Shartnoma tuzilgan joyi)

18.09.2025

(Shartnoma tuzilgan sana)

Bundan keyin "Buyurtmachi" deb ataluvchi Zarafshon shahar hokimligi nomidan ish olib boruvchi, nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi N.Raxmanov bir tomondan va bundan keyin "Yetkazib beruvchi" deb ataluvchi "UZINFOCOM" MCHJ nomidan ish olib boruvchi, nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari E.I.Gimranov ikkinchi tomondan, birgalikda Tomonlar deb ataluvchilar ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Shartnoma shartlariga ko'ra, Yetkazib beruvchi Buyurtmachiga ushbu shartnomada o'rnatilgan muddatlarda shartnomaning 1.2 bandida keltirilgan Tovar (ish, xizmat)larni yetkazib berish va topshirish, Buyurtmachi esa ushbu Tovar (ish, xizmat)larni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

1.2. Yetkazib beruvchi quyidagi Tovar (ish, xizmat)larni yetkazib beradi:

№	Ish va xizmat nomi	Ulchov birligi	Soni	Ish va xizmat birligi uchun boshl. narx	Ish va xizmat birligi uchun kelishkan narx	Tavsifi
1	Услуга по технической поддержке информационных технологий	Единица измерения: усл. ед Область применения услуги: Промышленность	5.0	2,700,000.00	13,500,000.00	Код: 42-99-990; Ахборот технологияларини техник қўллаб-қувватлаш доирасидаги харажатлар учун (Халқ депутатлари Зарафшон шаҳар кенгашининг 13.08.2025 йилдаги VII-14-136-5-78-K/25 сонли қарорига асосан).
2	Услуга по технической поддержке информационных технологий	Единица измерения: усл. ед Область применения услуги: Промышленность	1.0	2,700,000.00	2,700,000.00	Код: 42-99-990; Ахборот технологияларини техник қўллаб-қувватлаш доирасидаги харажатлар учун (Халқ депутатлари Зарафшон шаҳар кенгашининг 13.08.2025 йилдаги VII-14-136-5-78-K/25 сонли қарорига асосан).
3	Услуга по технической поддержке информационных технологий	Единица измерения: усл. ед Область применения услуги: Промышленность	1.0	2,700,000.00	2,700,000.00	Код: 42-99-990; Ахборот технологияларини техник қўллаб-қувватлаш доирасидаги харажатлар учун (Халқ депутатлари Зарафшон шаҳар кенгашининг 13.08.2025 йилдаги VII-14-136-5-78-K/25 сонли қарорига асосан).
4	Услуга по технической поддержке информационных технологий	Единица измерения: усл. ед Область применения услуги: Промышленность	1.0	2,700,000.00	2,700,000.00	Код: 42-99-990; Ахборот технологияларини техник қўллаб-қувватлаш доирасидаги харажатлар учун (Халқ депутатлари Зарафшон шаҳар кенгашининг 13.08.2025 йилдаги VII-14-136-5-78-K/25 сонли қарорига асосан).

2. SHARTNOMA NARXI VA HISOB-KITOBLARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

2.1. Shartnoma bo'yicha tovar (ish, xizmat)larning umumiy narxi 21 600 000 so'mni tashkil etadi.

2.2. Buyurtmachi Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati tomonidan ro'yxatga olingan kundan boshlab 5 (bank) ish kuni ichida Yetkazib beruvchining hisobraqamiga shartnoma umumiy narxining 30 foizi miqdorida oldindan to'lovni amalga oshiradi

2.3. Buyurtmachi shartnoma narxining 70 foizi miqdorida qolgan to'lovni Yetkazib beruvchi tomonidan taqdim etilgan hisobvara-fakturaga asosan, mazkur hisobvara-fakturaga imzolangan kundan boshlab 10 (besh) (bank) ish kuni ichida amalga oshiradi. Bunda Buyurtmachi oldindan to'langan bo'nak summasini chegirgan holda, hisobvara-faktura summasining 70 foiziga teng mablag'ni Yetkazib beruvchining hisobraqamiga o'tkazib beradi.

42

3. YETKAZIB BERISH MUDDATLARI VA SHARTLARI

3.1. Yetkazib beruvchi tomonidan tovarlarni Buyurtmachiga yetkazib berish 120 ish kuni mobaynida amalga oshiriladi

3.2. Yetkazib beruvchi taraflarning kelishuvi bilan tovarni Buyurtmachiga o'zi yetkazib beradi, bunda tovarni yetkazib berish bo'yicha transport va boshqa xarajatlar Yetkazib beruvchi xisobidan amalga oshiriladi. Tovarni yetkazib berish qiymati tovarning narxiga kirmaydi.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

4.1. Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun mazkur shartnoma va amaldagi qonunchilikka asosan javobgar buladi.

4.2. Yetkazib beruvchi tomonidan tovarlarni yetkazib berishni kechiktirganlik yoki to'liq yetkazib bermaganlik, yetkazib beruvchi Buyurtmachiga har bir kechiktirilgan kun uchun to'liq yetkazib berilmagan tovar (ish, xizmat)lar haqqining 0,4 foizi miqdorda, biroq yetkazib berilmagan tovar (ish, xizmat)lar qiymatining 50 foizi miqdoridan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

4.3. Ushbu shartnoma bo'yicha haq tomonlar haq to'lash muddatlarini buzganlik uchun Buyurtmachi Yetkazib beruvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun qarzdorlik summasining 0,4 foizi miqdorda, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

4.4. Ushbu shartnomadan kelib chiqadigan barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Tomonlarning ikki tomonlama kelishuviga erishish imkoni bo'lmagan holda yuzaga kelgan nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

5. KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR

5.1. Tomonlar:

- Tomonlar, ularning affillangan shaxslari va xodimlari, ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya harakertiga ega bo'lgan, shu jumladan pora berish yoki berishni va'da qilish, tamagirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti-harakatlar/harakatsizliklarni sodir etmaydilar

- Tomonlar, ularning affillangan shaxslari va xodimlari, boshqa tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim, shuningdek vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlar/harakatsizliklarni bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar

- Tomonlar ushbu harakatlarni oldini olish uchun choralar ko'rilishini kafolatlaydilar

5.2. Tomonlar yuqoridagi yuqoridagi band talablarini buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi tomonni xabardor qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlaridagi normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi

5.3. Bir Tomon korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikni buzganda, boshqa tomon shartnomani bekor qilish haqida yozma habarnoma jo'natgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega. Mazkur shartlar qoidalarida asosida Shartnomani bekor qilish tashabbusi bilan chiqqan Tomon, shartnomani bekor qilish natijasida vujudga kelgan haqiqiy zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega.

6. BARTARAF ETIB BO'LMAYDIGAN KUCH HOLATLARI (FORS-MAJOR)

6.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar, agar bunday holat ushbu shartnoma tuzilgandan keyin va tomonlar oqilona chora-tadbirlar bilan oldini ololmagan favqulotda tushadigan voqealar oqibatida paydo bo'lgan bartaraf etib bo'lmaydigan kuchlar oqibati hisoblansa va mazkur holatlar ushbu shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir qilgan bo'lsa. Bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holatlari deganda: suv toshqini, yong'in, zilzila, davlat organlarining harakatlari yoki harakatsizligi (shu jumladan valyuta operatsiyalarini cheklashlar), epidemiya va pandemiya shuningdek boshqa tabiat hodisalari, urush yoki harbiy harakatlar va shu kabilar tushuniladi.

6.2. Yuqoridagi bandeda ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelganda yoki aniq bo'lganda har bir tomon 5 (besh) calendar kuni ichida bu haqda boshqa tomonga habardor qilishi kerak. Bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holatlari to'g'risida xabar qilmaslik yoki o'z vaqtida xabar qilmaslik tegishli Tomonni majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslikni asoslash uchun ularga havola qilishdan mahrum qiladi.

6.3. Ushbu shartnoma bo'yicha holatlarni bajarish muddati, holatlar davomidagi muddatga mutanosib ravishda kechiktiriladi. Agar tomonlar bir oy ichida kelishuvga erisha olmasalar, tomonlarning har biri shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqlidir

7. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA UNI BEKOR QILISH SHARTLARI

7.1. Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati tomonidan ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 31.12.2025 gacha amal qiladi.

7.2. Tomonlar ushbu shartnomani Tomonlarning kelishuviga ko'ra shartnomada va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda muddatidan oldin bekor qilish huquqiga ega. Shartnomani bekor qilinishini boshlab beruvchi Tomon taxmin qilingan bekor qilish sanasidan 10 (o'n) kalendar kuni oldin o'zining qarori to'g'risida xabardor qiladi. Tomonlarning barcha o'zaro hisob-kitoblari amalga oshirilgandan keyin shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.

TARAFLARNING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI

IJROCHI	BUYURTMACHI
Nomi: ООО "Единый интегратор - UZINFOCOM" Manzili: город Ташкент, Шайхантахурский район, А.Навои Tel: 712022202 STIR: 204118319 JShShIR: Hisobraqam: 20208000904198204001 Bank: ТОШКЕНТ Ш., "КАПИТАЛБАНК" АТ БАНКИНИНГ ТОШКЕНТ ШАХАР ФИЛИАЛИ MFO: 00445	Nomi: Зарафшон шаҳар ҳокимлиги Manzili: Навоийская область, Зарафшан, Зарафшон шаҳар 2-кичик туман марварид кўчаси 1-уй Tel: 8436-573-14-15 STIR: 200010211 JShShIR: 200010211 Hisobraqam: 100022860124087011204018002 MFO: 00014 Bank: Markaziy bank

Tasdiqlovchi shaxslar

No	FIO	Lavozimi	Tasdiqlagan sana	Holat
1	KARIMOV MANSUR MUSTAFOYEVICH	Юрист	19.09.2025 14:44	Rozi
2	RAXMANOV NAZIRBEK ISRAILOVICH	Рахбар	19.09.2025 14:59	Rozi

